



HISTORY OF FOLKLORE IN ZARAFSHAN OASIS

Mirsaid Abdurakhmonov

Navoi State University of Mining and Technologies

Navoi, Uzbekistan

E-mail: mirsaidabduraxmonov854@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Folklore, artistic word, history of literature, Zarafshan Oasis, Youth Education, Art of Turkic peoples, types of folklore genres.

Received: 18.03.25

Accepted: 20.03.25

Published: 22.03.25

Abstract: In this article, on the example of Zarafshan Oasis, the samples of Uzbek folk oral creativity, folklore history, folk oral creativity inherited from our ancestors of the distant past were written on the basis of some research results that their role in educating young people as spiritually competent, educated, humane people and are an integral part of the history of Turkic peoples.

ZARAFSHON VOHASIDA FOLKLOR TARIXI

Mirsaid Abduraxmonov

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Navoiy, O'zbekiston

E-mail: mirsaidabduraxmonov854@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Folklor, badiiy so'z, adabiyot tarixi, Zarafshon vohasi, yoshlar tarbiyasi, turkiy xalqlar san'ati, folklor janrlar turlari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zarafshon vohasi misolida o'zbek xalq og'zaki ijodi, folklor tarixi, uzoq o'tmish ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan xalq og'zaki ijodi namunalari yoshlarni ma'naviy barkamol, bilimli, insonparvar insonlar etib tarbiyalashdagi roli hamda turkiy xalqlar mushtarak tarixining ajralmas bir qismi ekanligi ba'zi tatqiqot natijalari asosida bayon qilindi.

ИСТОРИЯ ФОЛЬКЛОРА ЗАРАФШАНСКОГО ОАЗИСА

Мирсаид Абдурахмонов

Навоийский государственный горно-технологический университет

Навои, Узбекистан

E-mail: mirsaidabduraxmonov854@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: художественное слово, литература, Воспитание тюркских народов, виды фольклорных жанров.	Фольклор, история Зарафшанский оазис, Искусство фольклорных жанров.	Аннотация: В данной статье на примере Зарафшанского оазиса представлены образцы узбекского народного устного творчества, история фольклора, образцы устного народного творчества, унаследованные от наших предков из далекого прошлого, их роль в воспитании духовно развитой, образованной, гуманной молодёжи, а также изложены на основе результатов исследований об их неотъемлемой роли в истории тюркских народов.
--	--	--

KIRISH

Badiiy soʻz sanʼati dunyo madaniyati tarixining qadimgi va katta ahamiyatga ega boʻlgan bir qismidir. Uning ilk kurtaklari ibtidoiy jamoa tuzumi davrida vujudga kelgan. Mehnat jarayonining rivoji, mehnat qurollarining takomillashishi, kishilar tajribasi va ongining taraqqiyoti ogʻzaki adabiyotning rivojlanishi uchun zamin yaratgan. Odamlar sekinlik bilan hayotiy tajribalarini, tabiat va jamiyat haqidagi oʻy-hayollarini turli obrazli soʻzlar orqali tasvirlash koʻnikmalari egallay boshladilar. Badiiy soʻz tajribasining oshishi, estetik did va qarashlarning takomillashib borishi turli tuman badiiy soʻz shakllari, adabiy janrlarning paydo boʻlishiga zamin tayyorlaydi. Hayratlanarli jihati shundaki, badiiy soʻz sanʼati yozuv va yozma adabiyot vujudga kelishidan ancha oldin xalq ogʻzaki ijodi koʻrinishida paydo boʻladi. Ushbu sanʼat turlari asrlar davomida ogʻizdan ogʻizga, avloddan avlodga muhim maʼnaviy meros tariqasida oʻtib keladi. Lekin, u ham asrlar davomida bir xil saqlanmagan yaʼni asrlar davomida sayqallanib, badiiy qayta ishlangan, turli oʻzgarishlarga uchragan, yangi maʼlumotlar bilan boyigan, zamonasining tarixiy shart-sharoitlariga moslashgan. Ogʻzaki adabiyotning ushbu turi yozma adabiyot vujudga kelgach uning tajribalaridan maʼlum maʼnoda foydalana boshlagan. Ogʻzaki adabiyotning ushbu turi hozirgi zamonaviy adabiyotda – folklorshunoslik nomi bilan yuritiladi va u uzoq tarixga ega boʻlgan katta bir janrni tashkil etadi.

Folklor janrlari turli xalqlar madaniyatlarini ifodalovchi, asosan, ogʻzaki ravishda avloddan-avlodga oʻtadigan asarlardir. Ular asosan quyidagi janrlarga boʻlinadi:

1. Ertaklar – fantastik voqealar va hodisalarni oʻz ichiga olgan hikoyalar. Ertaklar ahloqiy tarbiya va dunyoqarashni rivojlantiradi. Ular farishtalar, sehrgarlar, hayvonlar kabi obrazlar orqali ahloqiy tarbiya berishga asoslanadi.

2. Manilar – odatda qisqa va oʻziga xos qaytariladigan frazalardan iborat, oddiy insonlar tomonidan aytiladigan qoʻshiqlar. Ular koʻpincha mehnat, sevgi yoki tabiat haqida bayon qilinadi.

3. Hikoyalar – haqiqiy yoki toʻliq fantastik boʻlishi mumkin. Qisqa tarix, ularning ichida ijtimoiy, axloqiy yoki diniy mavzularda boʻlishi mumkin.

4. Dostonlar – ajoyib va epic hikoyalar, odatda ko‘plab qahramonlar va voqealarni o‘z ichiga oladi. Ular xalq tarixini va qadriyatlarini tarannum etadi. Dostonlar ko‘pincha she‘riy shaklda bo‘ladi.

5. Topishmoqlar – tabiatdagi hodisalar yoki kundalik hayotning qiziqarli va ma‘noli tasvirlari asosida tuzilgan jumboqlar. Ular aqliy qobiliyatni rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

6. Qo‘shiqlar – xalq qo‘shiqlari, odatda turli voqealar, hissiyotlar yoki tarixiy hodisalarni tasvirlaydigan, musiqali shakldagi folklore asarlari hisoblanadi.

7. Afsonalar – diniy yoki mifologik elementlarga asoslangan hikoyalar, ular xalqning dunyoqarashi, e‘tiqodlari va qadriyatlarini aks ettiradi.

8. Folk-fantastika – odatda hayvonlarning, o‘simliklarning yoki boshqa tabiiy elementlarning antropomorfik tasvirlari bilan ifodalangan, ma‘naviy saboqlarni o‘z ichiga olgan hikoyalar. Bu janrlar folklorning asosiy janrlaridan bo‘lib, bundan tashqari har bir xalqning madaniy xilma-xilligidan kelib chiqib turli kichik janrlar ham mavjud.

Shu o‘rinda maqola mavzusidan kelib chiqqan holda Zarafshon vohasi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tishni lozim deb hisoblayman. Qadimgi Zarafshon daryosi fors tilidan tarjima qilinganida – “zar oqadigan daryo” degan ma‘noni anglatadi. Bundan qumlari oltin bilan to‘yingan voha nomi kelib chiqadi. Geografik joylashuvi jihatidan Zarafshon vohasi O‘zbekistonning markaziy qismini o‘z ichiga oladi, shimoldan Nurota tog‘lari, qumli Sundukli cho‘llari, g‘arb va shimoli-g‘arbdan Qoraqum va Qizilqum cho‘llari o‘rab turadi. Zarafshon vohasi O‘zbekiston hududida goh kengayib, goh torayib boradi. Kengaygan qismida Samarqand, Buxora va Qorako‘l vohalari, toraygan qismida – Hazar va Qorako‘l yo‘laklari joylashgan.

Samarqand vohasi shu nom bilan ataladigan chuqurda joylashgan. Samarqand kengaytmasi 70-80 km, uzunligi 220 km, balandligi dengiz sathidan 350-905 metr. Zarafshon vohasi g‘arbga tomon kengayib, Buxoro vohasini tashkil qiladi. Shimoldan va g‘arbdan Qizilqum sahrosi, janubi-g‘arbdan Qorako‘l platosi uni Qorako‘l vohasidan ajratib turadi. Zarafshon vohasi subtropik kengliklarda joylashgan. Bulutsiz quyoshli kunlar ko‘p bo‘ladi. Bu hududda shakllangan xalq og‘zaki ijodiyoti namunalarida vohaning tabiiy sharoiti, iqlimi, yil fasllari o‘z aksini topgan. Bu esa, folklor janrlarining nafaqat madaniyat rivojida, shuningdek, iqlim sharoiti bilan bog‘liq bo‘lgan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq turlarining rivojiga ham hissa qo‘shganligini anglatadi.

Zarafshon vohasida folklor, avvalo, uning geografik va tarixiy o‘rni bilan chambarchas bog‘liq ekanligini unutmasligimiz lozim. Zarafshon vodiysi Markaziy Osiyoning madaniy va iqtisodiy markazi bo‘lib, qadim zamonlardan buyon savdo va madaniy yo‘llar kesishgan nuqta hisoblanadi. Bu yerda o‘rta asrlar davrida Sharqning buyuk madaniyatlari o‘zaro aloqalar

oʻrnatgan, shu bilan birga, mahalliy xalqlarning urf-odatları va anʼanalari shakllangan. Folklor ushbu aloqalar va tarixiy jarayonlarning mahsuli boʻlib, oʻziga xos shakl va mazmun hosil qilgan.

Zarafshon vohasida folklor, avvalo, xalqning tabiat bilan oʻzaro aloqalarini, mehnatini va kundalik hayotini aks ettiruvchi turli afsonalar va hikoyalardan iborat. Masalan, Zarafshon daryosining kelib chiqishi haqida afsonalar mavjud boʻlib, ular xalq orasida keng tarqalgan. Bu afsonalarda daryo, insonlar va tabiat oʻrtasidagi muvozanatni, ularning bir-biriga bogʻliqligini tasvirlash orqali xalqning tabiatga boʻlgan hurmatini ifodalaydi.

Insoniyat folklorshunosligida ogʻzaki ijod namunalari bashariyatning koʻp asrlik oʻtmishi, urf-odatları, badiiy tafakkuri, olamni badiiy-estetik idrok etishning oʻziga xos shakli sifatida beqiyos qadr-qimmatga ega. Folklorning boshqa fanlar bilan aloqadorligini aniqlash, folklor janrlarining tadrijiy takomili, oʻziga xos xususiyatlari, poetik tasvir tamoyillarini tahlil qilish hamda folklor asarlarini davr nuqtayi nazaridan oʻrganish, folklor namunalarining nashr qilinishi, soha rivoji uchun munosib hissa qoʻshgan olimlarning ilmiy faoliyatlarini oʻrganish kabi masalalar folklorshunoslik oldida turgan dolzarb muammolardandir.

Dunyo folklorshunosligida milliy folklorshunoslik maktablariga asos solgan va uning taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshgan olimlarning ilmiy faoliyatini tadqiq etish muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Bu kabi tadqiqotlar barcha xalqlarda folklorshunoslik shakllanishi va rivojlanish tarixi, taraqqiyot bosqichlari va tamoyillarini belgilab berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, folklor namunalarini yozib olish, toʻplash, tasnif va tadqiq etish, muayyan xalq folklori namunalarini jahon xalqlari folklorshunosligida tutgan oʻrnini aniqlab berish nuqtai nazaridan ham eʼtiborga molikdir.

Oʻzbek folklorshunosligi ham xalq ogʻzaki poetik ijodi namunalarini toʻplash, tasnif va tadqiq etishda uzoq tarixiy taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtgan. “Insoniyat yaratgan bebaho madaniyat durdonalari, eng avvalo, har qaysi millatning folklor sanʼatida mujassam boʻlganligi hammamizga yaxshi maʼlum. Turli xalqlarning milliy oʻzligini, ularning tili va hayot tarzini, anʼana va urf-odatlarini ifoda etadigan baxshichilik sanʼati umumbashariy madaniyatning uzviy qismi sifatida barchamiz uchun qadrlidir” [1]. XX asrdan eʼtiboran bu borada salmoqli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Oʻzbek folklorini qardosh xalqlar folklori namunalari bilan qiyoslagan holda oʻrganish, folklor namunalarining badiiyati, tipologiyasi, lokalligi va genezisiga oid ilmiy qarashlar eʼlon qilinib, folklor namunalarini nashr qilish va targʻib etish borasida qilingan ishlar koʻlami kengaymoqda.

Zarafshon vohasida bir qancha folklor janrlari asosida faoliyat olib borayotgan ansambllarga qisqacha toʻxtalib oʻtish joiz. Samarqand viloyatida 28 ta unvonga ega boʻlgan badiiy jamoalar faoliyat yuritmoqda. Masalan, Bulungʻur tumanida milliy oʻyinlar asosida tashkil etilgan “Chavqi” folklor - etnografik xalq ansamblini misol tariqasida koʻrsatsak boʻladi. “Chavqi” oʻziga xos

etnofolklor hodisa bo'lib, Bulung'ur, Zomin, Baxmal, G'allaorol, Katta Qo'rgon, Payariq, Jomboy, Urgut tumanlarida asrlar davomida keng tarqalgan xalq o'yinidir. "Chavqi" so'zining ma'nosi gulxan atrofida kechasi o'ynaladigan xalq o'yini hamda "Kurash", "Olish" degan ma'nolarni anglatadi. "Chavqi" o'yini o'z davrining milliy san'ati hisoblanib, mehnatkash xalqning san'atga bo'lgan talabini ma'lum darajada qondirish bilan birga kishilarni jamoatchilik ruhida tarbiyalashda ulkan vazifani bajargan. Bulung'ur tuman madaniyat uyi qoshidagi "Chavqi" folklor-etnografik ansambli 1986-yilda tashkil etilgan. Xalq ijodiyotining jonkuyari, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Suvonqul Abduqodirov va Baxodir Norovlar bo'lib, qatnashuvchilar soni 20 kishini tashkil qiladi. "Chavqi"ning qadimiy qo'shiqlarini yaxshi biladigan keksa kishilar bilan suhbatlashib, ulardan ko'plab xalq o'yinlarini, qo'shiqlarini, termalarini, laparlarini, va qarsaq o'yinlarini yozib olgan. Chavqining o'tkazilish tartibi, bir qarsaq, uch qarsaq, besh qarsaq, yetti qarsaq, qo'shqarsaq, mayda qarsaq o'yinlarining turlarini va ijro etish usullari, qo'shiqlar matniga mos keladigan ohanglari aniqlandi. Ansamblning repertuaridagi yuzdan ortiq xalq milliy o'yinlariga asoslangan qo'shiqlari mazmun va bo'g'inlariga qarab bir qarsaq, uch qarsaq, besh qarsaq, qo'shqarsaq va mayda qarsaq usullarida ijro etilishi ham aniqlandi. Qayd etish joizki, hozirgi kunda "Yil boshi", "Dehqon dala aylandi", "Poda to'p", "Sumalak", "Qongtarovi", "Samarqand bozori", "Chillik" o'yini, "Quloq cho'zma" o'yini, "Besh qarsaq", "O'mbaloq, do'mbaloq oshib o'ynaymiz", "Topron" o'yini, "Cho'pon cho'liq podachi", "To'y marosimi" qo'shiqlari kabi badiiy teatrlashgan maydon tomoshalarini yaratishga erishildi. "Chavqi" folklor ansamblining boshqa folklor namunalaridan farqi shundaki, uning ijrosidagi xalq termalari, laparlari, qo'shiqlari va aytishuvlari qarsaq usullari bilan boshqarilib boriladi. Bu ansambl Samarqand shahrida o'tkazilayotgan barcha tadbirlarda va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan anjumanlarda, "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalining tantanali ochilishida muntazam ishtirok etib kelmoqda. Samarqand viloyatida va Respublika Navro'z va Mustaqillik bayram tantanalarida muntazam qatnashib kelmoqda. Yana shunday guruhlardan biri Samarqand viloyatining Kattaqo'rgon tuman madaniyat uyi qoshidagi "Sarbozi" folklor - etnografik ansambli 1986-yilda tashkil etilgan. Rahbari Nurullo Shodmonov jamoda 22 kishini tashkil etadi. Urgut tumani madaniyat uyi qoshidagi "Beshqarsak" folklor-etnografik ansambli 1957-yilda tashkil etilgan. Rahbari Shokir Norboyev jamoada 16 kishini tashkil etadi. "Beshqarsak"ning qadimiy qo'shiqlarini yaxshi biladigan keksa kishilar bilan suhbatlashib, ulardan ko'plab xalq o'yinlarini, qo'shiqlarini, termalarini, laparlarini, va qarsaq o'yinlarini yozib olgan. Beshqarsak o'tkazilish tartibi, birqarsaq, uchqarsaq, beshqarsaq, yettiqarsaq, qo'shqarsaq, maydaqarsaq o'yinlarining turlarini va ijro etish usullari, qo'shiqlar matniga mos keladigan ohanglari aniqlandi. Buxoro viloyatida esa, 38 ta unvonga ega folklor-etnografik xalq jamoalari faoliyat yuritmoqda. Masalan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, "El-yurt hurmati" ordeni

sohibi Buxoro folklor qo'shiq va raqslarining mohir ijrochisi Oliya Hasanova tashabbusi bilan qadimiy Buxoro yo'lida ijro etiladigan "Mavrigi" turkumidagi unutilib borayotgan xalq qo'shiqlarini maromiga yetkazib ijro etadigan jamoa – "Mohi sitora" folklor-etnografik xalq jamoasi tashkil etilgan. Bu jamoa qisqa vaqt ichida mashhurlikka erisha olgan. Ular O'zbekiston, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston respublikalari televideniyalari orqali 30 ga yaqin chiqishlar qilgan. Bundan tashqari, "Nozanin" (1983), "Mavji Buxoro" (2002), "Mardona" (1988), "Jondor" (1984), "Qasri Orifon" (1989), "Afshona" (1986), "Mirishkor" (1997), "Olot durdonalari" (2010), "Vardonze navolari", "Sahro sabolar" (1992), "Xo'jai Jahon" (1992), "Omonyor" (2012) kabi folklor-etnografik xalq ansabllari faoliyat yurtmoqda. Navoiy viloyatida esa, 17 ta unvonga ega badiiy jamoalar faoliyat yuritmoqda. Masalan, "Nurjahon" (1991), "Xushon-zamon" (1987), "Yor-yor" (1986), "Vang'ozi", "Karmana yulduzlari" kabi Folklor – etnografik xalq ansambllarini misol tariqasida keltirsak bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbek folklorining so'z san'atiga asoslangan janrlar tizimi doston, ertak, qissa, rivoyat, naql, afsona, mif, lof, latifa, marosim folklori, bolalar folklori, og'zaki drama, maqol va hikmatli so'zlar, afsun, avrash, olqish va qarg'ishlardan iboratdir. Folklor har bir xalqning ma'naviy boyligi hamda ulug' qadriyatidir. Insonning ma'naviyatini yuksaltirishda xalq og'zaki ijodining o'rnida haqida gap ketar ekan, aslida, bu jarayon bolaning tug'ilishidan boshlanadi. Onalarimiz, momolarimiz aytgan allalar, ertaklar, tez aytishlar, maqollar va qo'shiqlar bolaning tili va dunyoqarashi shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir yosh vakillarini birday qiziqitiruvchi xalq o'yinlari esa bolaning ham aqlan, ham jismonan ulg'ayishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, har bir xalqning til boyligi birinchi navbatda, uning folklorida namoyon bo'ladi. Biror bir xalqning qanday xalqligini bilish uchun uning xalq og'zaki ijodini o'rganish zarur. Folklorda xalqning til imkoniyatlari, mushohada tarzi, ijodiy quvvati aks etgan bo'ladi.

Folklorshunoslikka turli davrlarda va turli mamlakatlarda etnografiya, adabiyotshunoslik, musiqashunoslik, antropologiya va sotsiologiyaning bir qismi sifatida qaraladi. Folklorshunoslikning asoslari qadimgi dunyo estetik tafakkuriga borib taqaladi. Qadimgi dunyo sayyohlari va tarixchilarining afsona va rivoyatlari, turli urf-odat va marosimlar haqidagi qaydlari, yozuvchi va bastakorlarning folklor to'g'risidagi dastlabki fikrlari muhim ma'lumot manbalari sifatida juda yuqori baholanadi. Turkiy xalqlarda folklor materiallarini yozib olish bo'yicha dastlabki tajribalar XI asrdan boshlab Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" (Turkiy xalqlar devoni) asarida ko'rishimiz mumkin. Ayni shu davrlardan boshlab asta-sekinlik bilan yozuvchi va shoirlar tomonidan ertaklar, miflar, afsona va rivoyatlarni qayta ishlash jarayoni ham boshlandi. XIX asr boshlarida folklorga nisbatan ilmiy qiziqishning kuchayishi, xalq og'zaki ijodi

materiallarini to'plash va nashr etish jadal rivojlana boshlaydi. Natijada, dunyoning aksariyat hududlarida folklorshunoslikning turli yo'nalishlari, maktablari vujudga kela boshlaydi. Ma'rifatparvarlar esa, folklorning demokratik, umuminsoniy xususiyatlari bir biriga o'xshashligi va bir birini to'ldirishi mumkinligiga e'tibor qaratadilar.

Folklori xalq tarixi bilan bog'liq holda o'rganishda tarix maktablari vakillari katta hissa qo'shmoqdalar. Hozirgi paytda dunyoning deyarli barcha mamlakatlarda folklor sektorlari mavjud. Shuningdek, turli mamlakatlarda xalqaro yoki muayyan mintaqa bo'yicha har xil jamiyatlar ham bor. Masalan, YUNESKO huzuridagi Etnologiya va folklor xalqaro jamiyati, Xalq musiqasi xalqaro kengashi, Folklor do'stlik jamiyati kabilar shunday ilmiy tashkilotlardir. O'zbek folklori namunalarini to'plash va nashr etish ishlari XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi, ammo, chinakamiga ularni to'plash va nashr etish ishlari 1919-yildan yo'lga qo'yila boshlandi. Yangicha yo'nalishda shakllana boshlagan O'zbek folklorshunosligining dastlabki bosqichi (1918-1925-yillar) o'sha davr sharqshunosligi va o'lkashunosligi erishgan yutuqlarni izchillik bilan o'zlashtirishga intilish, folklor materiallarini jadal jamlash, xalq hayoti va maishiy turmushining barcha tomonlariga kirib borishga urinish bilan ajralib turadi. Bunda G'ozzi Olim, G'ulom Zafariy va Elbeklarning faoliyatlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab yana ham katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'ltan shoir kabi atoqli dostonchilar faoliyat ko'rsatdi. Ular ijrosida birinchi marta epik asarlar to'la yozib olinib boshladi, xalq san'atkorlariga ijodkor sifatida qarash yangi bosqichga ko'tarildi. Bu ishda o'zbek folklorshunosligi o'zining mustahkam ilmiy yo'nalishiga ega bo'ldi, uning asosi yaratildi. Folklori to'plash va o'rganishga, bir qancha epik asarlar hamda xalq ijodi namunalarini nashr etishga alohida e'tibor berildi, folklor bo'yicha xrestomatiya va o'quv qo'llanmalari yaratildi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida jangchilarni vatanparvarlik va qahramonlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi folklor asarlariga katta ahamiyat berildi, bu davrda V.M.Jirmunskiy va H.Zarifovlarning "O'zbek xalq qahramonlik eposi" kitobi yaratildi va 1947-yilda Moskvada nashr etildi. 1958-yilda esa, Germaniyada nemis tilida ham bosilib chiqdi. XX asrning 60-70-yillaridan boshlab, xususan, mustaqillik yillarida folklorga oid ishlar ko'lami yanada kengaydi. Folklorning turli janrlariga bag'ishlangan monografiyalarning yaratilishi, "O'zbek folklori ocherklari", "O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar" nomida turkum to'plamlarning yuzaga kelishi, "O'zbek xalq ijodi", "Bulbul taronalari", "Alpomish" dostonining akademik nashrlari amalga oshirildi. Bu ishlarni amalga oshirishda H.Razzoqov, T.G'oziboyev, O.Sobirov, J.Qobulniyozov, M.Saidov, M.Murodov, A.Qahhorov, X.Egamov, T.Mirzayev, K.Imomov, G'.Jalolov, B.Sarimsoqov, O.Safarov, S.Ro'zimboyev, M.Jo'rayev, A.Musaqulov [2] kabi folklorshunoslarning hissasi nihoyatda katta bo'ldi.

Shu o'rinda, bir jihatga e'tibor qaratishni lozim deb hisoblaymiz, ya'ni folklor namunalari katta so'z boyligini o'zida mujassamlashtirgan nodir ma'naviy boylik hisoblanadi. Mashhur allomalardan biri Hodi Zarif [3] "Folklor asarlarining ilmiy va badiiy qiymati ularning lug'at boyligi bilan belgilanadi" – degan fikrni bildiradi. Barcha davr tilshunoslarini xalq poetik ijodini o'rganish qiziqtirib kelgan. Mahmud Koshg'ariy zamonidan to bugungi kunga qadar xalq og'zaki ijodi haqida nimaiki aytilgan bo'lsa, bularning bari buyuk merosni o'rganishga o'zining munosib ulushini qo'shgan. Folklor ijod namunalari xalqning boyligi hisoblanar ekan, ularni o'rganish ham hamma vaqt dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Qadimgi dunyo sayyohlari va tarixchilarining afsona va rivoyatlar, turli urf-odat va marosimlar haqidagi qaydlari, yozuvchi va bastakorlarning folklor to'g'risidagi ilk fikrlari folklorshunoslik uchun muhimdir. Barcha davrlarning o'ziga xos urf-odat va madaniyati shakllanishi natijasida folklorshunoslik ham asta-sekin o'sib borgan. Folklor atamasini 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Tomas [4] taklif qilgan bo'lib, u "xalq donoligi" degan ma'noni anglatadi. Dastlabki vaqtlarda "el adabiyoti", "xalq adabiyoti", "og'zaki adabiyot", "xalq og'zaki ijodi" deb yuritilib kelingan. 1935-yildan e'tiboran "O'zbek folklori" nomi bilan yuritiladi. Xususan, folklor namunalari hisoblangan "To'maris", "Shiroq" kabi afsonalar, "Alpomish", "Ravshan", "Kuntug'mish" kabi dostonlar, "Malikai Husnobod", "Uch og'a-ini botirlar" kabi ertaklar, lirik qo'shiqlar, marosim va mehnat qo'shiqlari hamda boshqa og'zaki ijod namunalari o'zbek xalqi qadriyatlarining noyob qismidir. Folklor barcha san'atning boshlanishi, sarchashmasi, shu sababli ham boshqa ko'pgina san'atlar u bilan uyg'unlikka ega, shuning bilan birga hech biriga o'xshamagan o'ziga xosligi bilan alohida ajralib turuvchi san'at turidir – deb ta'kidlagan edi folklorshunos olim Jabbor Eshonqulov [5]. Haqiqatdan ham xalqimiz madaniyatining eng dastlabki kurtaklari folklor namunalari orqali ko'rinadi. Bugungi kunda ma'lumki, shaxsni tarbiyalashda uning ruhiy holatiga ta'sir qilmasdan samaraga erishib bo'lmaydi. Xalq og'zaki ijodida avlod tarbiyasi aynan ana shu usuldan foydalangan holda amalga oshiriladi. Dostonlarimizning bosh qahramonlariga aylangan jasur va mard o'g'lonlar va iboli-hayoli qizlar timsoli hech bir o'quvchini e'tiborsiz qoldirmaydi. Ularning qilgan xatolari orqali yoshlarga to'g'ri yo'lni tanlash kerakligi turli hayotiy misollar orqali tushuntiriladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda musiqa san'ati va madaniyatini yanada rivojlantirishda uchun ulkan imkoniyatlar yaratilmoqda. Musiqa madaniyatining turli yo'nalishlari bo'yicha yosh iste'dodlarni izlab topish, ularning ijodiy faoliyatini yuksaltirish yuzasidan g'amxo'rlik qilish muhim ahamiyatga molik vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Zero, o'tmishdagi musiqiy ijrochilik an'alarini tiklash, zamonaviy sharoitlarda saqlab qolish, jamiyat hayotida o'zbek musiqa madaniyatida Zarafshon vohasi folklor etnografik musiqa san'atining tutgan o'rnini tahlil etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoev ta'kidlaganidek "Madaniyat va san'at sohasi vakillari, ijodkorlar, shuningdek,

ushbu sohada faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchi va xodimlarni moddiy qo'llab-quvvatlash hamda ularning yashash sharoitlarini yaxshilash. O'zbek xalqi madaniyati va san'atini rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan atoqli ijodkor ziyolilar yubileylarini munosib nishonlash, hayoti va faoliyatini keng targ'ib qilish, xotirasini abadiylashtirish juda muhim hisoblanadi". "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da 76-maqсад sifatida "Madaniyat va san'at sohalarini yanada rivojlantirish, madaniyat muassasalari va obyektlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash" begilangan [6].

Folklor etnografik musiqa san'at va dramaturgiya munosabatlarining tarixiy-tadrijiy rivoji, folklorizmlarning badiiy-estetik xususiyatlari va poetik matn qurilishidagi vazifalari aniq belgilab olindi. Bu esa o'zbek folklori an'alarining yozma adabiyotdagi dramatik turga mansub sahna asarlarining yuzaga kelish jarayoniga ko'rsatgan ta'sirini aniqlab, tarixiy-folkloriy va adabiy jarayonlarning rivojlanish tamoyillarini belgilash imkonini berdi. Hozirgi zamon jahon folklorshunosligida xalq og'zaki ijodining badiiy adabiyotda milliylikni ifodalashdagi o'rni, epik syujet va motivlarning dramatik asarlardagi silizatsiyasi kabi masalalarning chuqur o'rganilishi natijasida folklorizm tushunchasining mohiyati teranlashtirildi. Mustaqillik tufayli xalqning milliy o'zligiga qaytishidan iborat keng ko'lamli ma'naviy tiklanish jarayonida Zarafshon vohasi folklor etnografik musiqa san'ati, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan qadimiy marosimlar, urf-odat va qadriyatlar mohiyatini anglashga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaydi.

XX asr boshlarida o'zbek musiqasi san'atiga alohida e'tibor bilan yondoshish zarur. Markaziy Osiyoda jadidchilik harakati, ulug' namoyandalari va ularning ijodiy faoliyati alohida ahamiyatlidir. Bunda Mahmudxo'ja Behbudiy, Sadriddin Ayniy, Abdurauf. Fitrat, Tavallo, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy va Abdulla Shakuriy kabi ma'rifatparvarlarning faoliyatlari alohida ahamiyatga ega. Ta'kidlash joizki, bu davrda o'zbek xalqi musiqa san'ati namoyandalari faoliyati ikki yo'nalishda rivojlangan. Mumtoz musiqa namunalari asosan yetuk hofiz, sozanda va bastakorlar tomonidan yaratilib, o'zining janrlari va ijro an'analari murakkabligi tufayli maqomchilik san'ati va dostonchilik ijro uslublari, maktablari bilan ajralib turadi.

O'zbek xalq mumtoz musiqasi o'zining mukammalligi va murakkabligi bilan boshqa xalqlar orasida alohida o'ringa egadir. Mumtoz musiqaning eng yirik shakli maqomlardir. Maqomlar O'zbekistonning uch vohasida mavjud bo'lib, Buxoroda "Shashmaqom", Xorazmda "Xorazm maqomlari", Farg'ona vodiysida "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari" deb yuritilgan. Mumtoz musiqaning shaklan muqimligi, qonun qoidalarga egaligi, talqin uslublarning mavjudligi uning murakkabligidan dalolat beradi. Maqomlar Sharq xalqlarining juda qadim zamonlardan mavjud bo'lgan musiqa janrlaridan biri sifatida musiqa merosida juda muhim o'rinni egallaydi. O'z davrida Buxoro amiri saroyida maqomlarga juda katta qiziqish bilan qaralgan. Amir Said Olimxon maqom musiqasini yuksak darajada qadrlagan, o'zi ham dutor chalishda mohir bo'lgan.

An'analarga ko'ra, amirlikda xalq musiqachilari orasidan iqtidorli bolalar tanlab olinib, tajribali musiqachilar qo'liga topshirilgan.

Masalan, Buxoroning mashhur maqom ustalari Usta Shodi Azizov, Shoxnazar Sohobov, Boboqul Fayzullaev kabilar saroy musiqachilari qo'lida ta'lim olganliklari fikrimizning dalilidir. Yozma adabiyotdagi folklor badiiy so'z san'atining o'ziga xos ko'rinishi sifatida juda qadim zamonlarda yuzaga kelgan bo'lib, xilma-xil janrlardan tarkib topgan. Ular bir necha asrlar davomida yosh avlod kamolotiga xizmat qiluvchi birlamchi manba vazifasini bajargan. Shuning uchun ham dramaturglarning folklordan ijodiy bahramand bo'lish orqali ijod qilishini o'ziga xos adabiy an'ana sifatida tadqiq etish folklorshunoslikning dolzarb muammolari sirasiga kiradi. Shu o'rinda 2019-yil 14-maydagi "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4320-sonli qarori, 2018-yil 1-noyabrdagi PQ-3990-son "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risidagi", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-apreldagi VMQ-304-son "Baxshichilik va dostonchilik san'atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarorlari folklor rivojiga katta turtki bo'layapti. Bugungi kunda yurtimizda yozib olingan dostonlar soni 400 tadan oshib ketganligi buning yorqin dalilidir [7].

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Folklor asarlar so'z san'ati sifatida yozma adabiyot namunalari va san'atning boshqa turlaridan o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra ajralib turadi. Folklorga xos bu xususiyatlar, avvalo, uning jamoaviy ijod ekanligidadir. Shuning uchun ham bu turdagi asar namunalarining muallifi xalq ommasi hisoblanadi. Ularning aniq ijodkori noma'lum, ya'ni anonim bo'ladi va xalq orasida avloddan avlodga og'zaki tarzda o'tib, kelgusi avlodlarga yetkaziladi, og'zaki ijro etiladi. Bunda, albatta, an'analarga rioya etilib, sayqallanadi hamda variantlarga, versiyalarga ega bo'ladi. Shunga ko'ra, folklorga xos xususiyatlar sifatida jamoaviylik, anonimlik, og'zakilik, an'anaviylik, variantlilik hamda versiyaviylik ko'rsatiladi. Jamoaviylik – o'zbek xalq og'zaki ijodi xalq tomonidan yaratiladi. Bilamizki, o'zbek xalqi qadim-qadimdan jamoa bo'lib mehnat faoliyatini olib borishgan, ya'ni hashar yo'li bilan biri-birining og'irini yengil qilishgan. Mana shu jarayonlar davomida turli xil qo'shiqlar, laparlar kuylangan va ayrim hududlarda hozir ham jamoaviy tarzda kuylab kelinmoqda. Xalq turmushi, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar takomillasha borishi, insonlar badiiy tafakkurining o'sishi jarayonida alohida ijrochilar – qo'shiqchilar, ertakchilar, baxshilar hamda qiziqchilar, ijro maktablari, ustoz va shogird munosabatlari paydo bo'la boshladi. Xalq orasida Tilla kampir, Sulton kampir, Jo'lmon baxshi, Bo'ron shoir, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Yo'ldosh bulbul kabi xalq namoyondalari yetishib chiqdi. Xalq doston, ertak yoki marosim qo'shiqlarining dastlabki ijrochilari kim va qachon ijro etilganligi noma'lum bo'ladi. Har bir asar avloddan avlodga o'tar ekan, vaqt va zamon talablariga ko'ra ma'lum o'zgarishlarga uchrashi

tabiiy, lekin uning asosi, an'analari o'zgarishsiz qolaveradi. Vaqtlar o'tishi davomida xalq ijrochilari tomonidan yanada ishlov berilib, chinakam folklor namunasiga aylanadi. Og'zakilik – xalq ijodiyotining yashash va yaratilish tarsi hisoblanadi. Folklor xalqning xotira manbaidan, xotiraning og'zaki avloddan avlodga, og'izdan og'izga ko'chishidan paydo bo'ladi. Bu o'rinda umum folkloriy bilim va folklor an'analari asos vazifasini o'taydi. Xotira manbai va folkloriy bilim bir yoki bir necha shaxslargagina tegishli bo'lmay, butun bir xalqning bilim va an'analaridan iborat bo'ladi. Bu bilim va an'analar ustozdan shogirdga, avloddan avlodga, urug'dan urug'ga o'tib, yangi davr ruhida, yangi ijrochilar va ijodkorlar salohiyatidan sayqal topib yashaydi. Bu xil sayqallanish u yoki bu folklor asarining shakli va mazmuniga qandaydir o'zgarish kiritishi, qo'shishi yoki tushirib qoldirishi mumkin. An'anaviylik – folklorning o'ziga xos yashash tarzini, uslubini, ifoda vositalarini ta'min etuvchi yetakchi belgilaridan hisoblanadi. Folklor tom ma'noda an'analar san'atidir. Variantlilik va versiyaviylik – folklor namunalarining har bir ijrosi o'ziga xos variant hisoblanadi. Folklor asari ijro jarayoni davomida qaytadan yaratiladi, yangi yashash holatiga kiradi va bu holat o'ziga xos variantni paydo etadi. Ya'ni folklor ijro jarayonida xilma-xil variantlarda yashaydi. Variantlilik folklorning yashash tarzi hisoblanadi. Olimlarning eslashicha, "Alpomish" dostonining 100 ga yaqin variant ma'lum bo'lib, shulardan 30 dan ortig'i yozib olingan. Variantlilik folklor tabiati, uning yaratilishi va jonli og'zaki ijodda yashash qonuniyatlaridan kelib chiqqan xususiyat bo'lib, u folklor asarlarining syujeti, obrazlilik, poetikasi, janr xususiyatlarini to'la qamrab oladi. Xususan, o'zbek folklori ko'p mingyillik tarixga ega va yuqoridagi barcha xususiyatlar mujassamlashgan madaniyatimizning ajralmas bo'lagidir. O'zbek folkoriga oid ma'lumotlarning bir qismi chet ellik mualliflarning qalamiga mansub kitoblar orqali yetib kelgan. Bu o'rinda yunon tarixchisi Gerodotning "Tarix" va Poliyenning "Harbiy hiylalar" asarlarini misol qilishimiz mumkin. Keyingi yillarda televideniye orqali namoyish etilgan hind xalqining mashhur eposlari asosida suratga olingan "Ramayana", "Mahobhorat" kabi teleseriallardan ma'lum bo'ldiki, o'zbek xalqining qadimgi qahramonlik eposlarida ilgari surilgan ezgu g'oyalar jahonning boshqa xalqlar qarashlari bilan chambarchas bog'liq va mushtarakdir.

XULOSA

Zarafshon vohasida xalq og'zaki poetik ijodining rivojlanishining bir qator xususiyatlari mavjud. Yuqorida bu xususiyatlarning bir nechtasiga to'xtalib o'tishga harakat qilindi. Folklor namunalarini o'rganish natijasida biz juda ko'plab ma'naviy ozuqa olish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Biz hattoki bu namunalar orqali dunyo xalqlari xalq og'zaki ijodining bir biriga o'xshash ekanligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Masalan, ingliz tilida "East or West home is best" maqoli hamda o'zbek tilidagi "Ona yurtning – oltin beshiging" maqollarini misol keltirsak bo'ladi. Ikkala maqolda ham inson uchun tug'ilgan yerning naqadar azizligi, dunyoning eng go'zal

go'shalari ham kindik qonimiz to'kilgan bir siqim tuproqdan aziz bo'la olmasligi kabi ma'nolar tushiniladi. Bunday misollarni juda ham ko'p keltirishimiz mumkin, lekin bizdan talab qilinadigan narsa ularning tub mohiyati nimada ekanligini anglash va ulardan kerakli joylarda unumli foydalanishdir. Xalq og'zaki poetik ijodiyoti sohasida ko'plab izlanishlar olib borilgan va bundan keyin ham bu jarayon qizg'in davom etadi deya olamiz. Zarafshon vohasi folklor etnografik san'ati o'ziga xos tarix va rivojlanish bosqichlariga ega. Bu tarixni o'rganish nafaqat bugungi kun uchun balki kelajak avlodlar taqdiri uchun ham ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoev, SH. M. (2019). Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. *T.: O'zbekiston*.
2. Mirzayeva, B. (2024, January). HODI ZARIFOV O'ZBEK EPOS SHUNOSLIGI ASOSCHISI. In *Konferensiyalar | Conferences* (Vol. 1, No. 4, pp. 546-550).
3. Ergashova, B. (2024). FOLKLORSHUNOSLIK TARIXI VA RIVOJI: O'zbek va italyan folklori misolida. *O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari*, 1074-1078.
4. Shermamatova, S., & Mamasiddiqova, M. (2023). O'ZBEK VA INGLIZ XALQ OG'ZAKI IJODIDAGI UMUMIY JIHATLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 953-959.
5. Jarasbayev, N. (2021). O'ZBEK FOLKLORSHUNOSIGI, TARIXI VA UNING ADABIYOTDAGI O'RNI. *Academic research in educational sciences*, 2(5), 1325-1331.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoniiga asosan tasdiqlangan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi.//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.
7. Isayev, K. S. (2024). ALPOMISH DOSTONI-O 'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODINING TARIXIY MADANIY BOYLIQI SIFATIDA. *World of Philology*, 3(4), 30-35.